

Kredit mahsuloti pasporti			
Kredit mahsuloti nomi	B I Z N E S S T A N D A R T		
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan/Ochiq kredit liniyasi orqali		
Mjozning hisobraqami	Asosiy/ikkilamchi hisob raqami		
Kredit maqsadi	Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadidagi qonun bilan ta'qiqlanmagan barcha turdagi loyihalarni moliyalashtirish uchun (ulgurji va chakana savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va faoliyatning boshqa sohalarida tovarlar, xom-ashyo va materiallar, bino va inshootlar, transport vositasi va maxsus hamda qishloq xo'jaligi texnikalari, uskuna va jihozlar va boshqalarni sotib olish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini bajarish va boshqa loyihalarni amalga oshirish uchun)		
Kredit oluvchilar	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanish istagida bo'lgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari/yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar.		
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki xorijiy valyuta (loyiha ko'rib chiqilayotgan kundagi Markaziy Bankning rasmiy valyuta kursi bo'yicha aniqlangan) ekvivalentida (*)		
Qarzdor	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari		Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari
Kredit miqdori	5 000 000 000,0 (Besh milliard) so'mgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyuta(*)da		3 000 000 000,0 (Uch milliard) so'mgacha yoki uning ekvivalenti miqdorida xorijiy valyutada
Kredit muddati	12 oy muddatgacha	12 oydan 24 oygacha	24 oydan 36 oygacha
Milliy valyutada foiz stavkasi	21% dan kam bo'lmagan	22% dan kam bo'lmagan	23% dan kam bo'lmagan
AQSH dollarida foiz stavkasi (*)	12,50% (*) dan kam bo'lmagan	13,0% (*) dan kam bo'lmagan	13,5% (*) dan kam bo'lmagan
Yevroda foiz stavkasi (*)	10% (*) dan kam bo'lmagan	10,5% (*) dan kam bo'lmagan	11% (*) dan kam bo'lmagan
Imtiyozli davr	Kredit liniyasi ochilmagan hollarda 6 oy muddatgacha		Kredit liniyasi ochilgan hollarda 8 oy muddatgacha
Kredit ajratish shakli	1. Kredit mablag'lari qarzdorning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq amaliyotlar bo'yicha xarajatlar to'lovlarini amalga oshirish uchun uning depozit hisob raqamiga o'tkazish orqali; 2. Bank kassasidan naqd ko'rinishda (<i>Kredit mablag'lari Kreditlash bo'limi nazorati ostida mijozning ssuda hisob raqamidan faqatgina milliy valyutada Bank kassasi orqali naqd pulda berish orqali ajratiladi</i>); 3. Mijoz tomonidan taqdim etilgan shartnomaga asosan pul ko'chirish yo'li orqali o'tkaziladi;		
Kredit qarzdorligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda jami qarzdorlik yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summadan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) bo'yicha 3,0 mlrd. so'm ekvivalentidagi summadan oshmasligi lozim. Shuningdek, nazorat asosida bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami qarzdorlik 7,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan oshmasligi lozim.		
Kreditni so'ndirish tartibi	Differentsial/Annuitet		
Kredit ta'minoti	Taqdim etilishi zarur bo'lgan kredit ta'minotiga quyidagilar qabul qilinadi: -Ko'chmas mulk; -Ishlab chiqarilganligi 7 yildan oshmagan avtotransport vositalari va maxsus texnikalar (bunda ishlab chiqarilgan yili birinchi yil deb hisoblanadi); -Pul mablag'lari depozit garovi; -Bank talablariga mos keluvchi sug'urta kompaniyasining kredit qaytmaslik xataridan sug'urta polisi yoki uchinchi shaxs kafilligi (<i>bunda har bir kredit bo'yicha umumiy garov tarkibining 25 foizidan oshmasligi va/yoki uning miqdori 700,0 million so'mdan yuqori bo'lmashligi lozim</i>). Uchinchi shaxslarning kafilligi taqdim etilganda "Asia Alliance Bank ATBda kredit xizmatlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bajarilishida ta'minotlarni qabul qilish tartibi" talablariga asosan qabul qilinadi. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulkni garov qiymatini aniqlashda "Asia Alliance Bank ATBda kredit xizmatlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bajarilishida ta'minotlarni qabul qilish" tartibiga asosan amalga oshiriladi.		
Qo'shimcha shartlar	1. Mazkur Modulli kredit bo'yicha hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichi ushbu mahsulot qoldig'iga nisbatan 4%dan oshga taqdirda kreditlash to'xtatiladi, hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichlari bankning tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim etib boriladi. Kreditlash mazkur NPL ko'rsatkichi belgilangan darajadan tushgan taqdirda qayta tiklanadi; 2. Kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishi alohida tartibda tekshirilmaydi va dalolatnoma tuzish orqali rasmiylashtirilmaydi.		
Talab etiladigan hujjatlar	Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar: 1. Kredit arizasi, ta'sis hujjatlari, korxonada ta'sischilari va rahbariyati ma'lumotlari, kredit olish va/yoki garov ta'minotini taqdim etish yuzasidan ta'sischilar roziligi/qarori; 2. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2-shakl operativ); balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa ma'lumotlar; 3. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holdagi kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab beruvchi hisob kitoblar; 4. Garov bilan bog'liq hujjatlar; 5. Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar: 1. Kredit arizasi, guvohnoma, pasport nusxasi, faoliyat ko'rsatayotgan joyi yuzasidan tasdiqlovchi hujjatlar; 2. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab ko'rsatib beruvchi hisob kitoblar hamda loyiha amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar; 3. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holdagi kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab beruvchi hisob kitoblar; 4. Garov bilan bog'liq hujjatlar; 5. Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar.		

<p>Mijozga qo'yiladigan talablar</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Operativ sanaga Qarzdorning moliyaviy natijalar bo'yicha hisoboti (2-shakl) zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzdorning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 2. Operativ sanaga Qarzdorning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmashligi lozim. Agarda, Qarzdor tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno; 3. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmashligi; 4. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida: <ol style="list-style-type: none"> 30+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 2 tadan ko'p bo'lmashligi; 60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 1 tadan ko'p bo'lmashligi; 90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmashligi; 5. Nazorat asosida o'zaro aloqador korxonalarining "Asia Alliance Bank" ATB tizimida muddati o'tgan kredit qarzdorliklari mavjud bo'lmashligi; 6. Nazorat asosida qarz oluvchini kredit tarixi to'g'risidagi (KATM) ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador korxonalarining "Asia Alliance Bank" ATB tizimida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan amaldagi kreditlari mavjud bo'lmashligi; 7. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda amaldagi kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik va kreditga hisoblangan foiz qarzdorliklari bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatlarini uzaytirish holatlari bo'lmashligi; 8. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan/mavjud majburiyatlari boyicha belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari (umumiy jihatdan bajarilmaganligi, boshqa holatlari ya'ni muddatida bajarilmaganligi mustasno) mavjud bo'lmashligi; 9. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo'lmashligi lozim. (Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo'yicha maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo'lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo'yicha ushbu shart qo'llanilmaydi); 10. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmashligi lozim; 11. Ohirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnomaga ko'rib chiqilib, rad etiladi; 12. Operativ sanaga mijozning kreditga layoqatlilik darajasi 3-sinf dan past bo'lmashligi lozim.
---	---

(* Kredit mablag'larini xorijiy valyutada ajratish bankning ichki me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar xorijiy valyutada moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan loyihalar bo'yicha import shartnomalarini moliyalashtirish maqsadlari uchun, shuningdek, ustuvor ravishda eksport tushumlariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi;

(**) Ushbu kredit ta'minoti tarkibining 100 foiz miqdorida pul mablag'lar garovi bilan ta'minlansa ushbu talab qo'llanilmaydi. Shuningdek mijoz tomonidan kredit summasini 150 foiz qoplaydigan, konsalting kompaniyasi hisoboti orqali baholangan ko'chmas mulk garovga taqdim etilsa ushbu talab qo'llanilmaydi. Bunda garov, hujjatlarida 125 foizda rasmiylashtiriladi.